

KIRISH SO‘ZI

Raqobat iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanib, u nafaqat bozorning samarali faoliyatiga, balki eng avvalo iste'molchilar farovonligini kafolatlashga xizmat qiladi.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-sonli Farmoniga hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi "Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 114-son qaroriga muvofiq tovar va moliya bozorida ustun mavqega ega xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy qilish belgilangan.

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bu - faoliyatning raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash, ularning buzilishi xatarlarini aniqlash va ushbu xatarlarni oldini olish bo'yicha ichki tashkiliy tartiblar tizimi hisoblanadi.

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi Jamiyatning xavfsiz biznes hamkor sifatidagi ishonchliligini mustahkamlash orqali uning bozordagi boshqa xo'jalik sub'yektlariga nisbatan raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi sog'lom raqobat qilish madaniyatini shakllantiradi va Jamiyatning barcha darajalardagi xodimlari ularning faoliyati qanday tartibga solinishi, muayyan vaziyatlarda qanday xatti-harakatlarni amalga oshirishlari borasidagi yuqori xabardorlik va mavjud normalarga rioya etishni ta'minlaydi.

Yuqoridagi qonun hujjatlariga ro'ra, "Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" AJ ijro organining 2024-yil 22-iyuldagi 29-sonli buyrug'i bilan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy qilindi.

Monopoliyaga qarshi komplayensning ustivor vazifalari belgilandi:

Jamiyat faoliyatining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta'minlash va monitoring qilish;

Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash va ularni baholash hamda ularni oldini olish;

Insofli raqobatni shakllantirish va tartibga solish;

Jamiyat xodimlarida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo'nalish bo'yicha ularning malakasini oshirish yuzasidan o'qitish yo'li bilan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga doir fikrlarini rivojlantirish.